



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUG'URTA BOZORI: HOZIRGI HOLATI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Izbosarov Bobur<sup>1</sup> Zokirova Diyora<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Toshkent moliya instituti dotsenti

<sup>2</sup>Toshkent moliya instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6615826>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> May 2022

Accepted: 02<sup>nd</sup> June 2022

Online: 05<sup>th</sup> June 2022

### KEY WORDS

*Sug'urta, sug'urta bozori, sug'urta xizmatlari, sug'urta tizimi, sug'urta bozori ishtirokchilari, investitsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sug'urta shartnomasi.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining hozirgi holati, muammolari va uni rivojlantirish borasidagi masalalar ko'rib chiqilgan. Sug'urta sohasida olib borilayotgan izlanishlarning nazariyasi hamda ularning amaliyotga tadbir'i ko'rsatilgan va ushbu sohada xizmatlar samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil etilgan.*

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun boshqa real sektorlar bilan bir qatorda sug'urta tizimi ham asosiy va noyob tarkibiy qism hisoblanadi. Bundan tashqari, sug'urta xizmatlari iqtisodiyotni turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qiluvchi vositalardan biridir. Biroq, mamlakatimiz moliya bozorida sug'urta xizmatlarining o'rnini hozircha yetarli emas. Buning isboti sifatida ko'rishimiz mumkinki, ushbu sohaning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi atigi 0,4% ni tashkil etmoqda. Rivojlangan davlatlarda esa bu ko'rsatkich ancha yuqori. Janubiy Koreyada 11%, Germaniyada 6% va Rossiyada 1,5% ni tashkil etadi. Ushbu holatga juda ko'p sabablarni keltirish mumkin, lekin uning asosiy sabablaridan biri - sug'urta xizmatlari yetarli darajada jozibador emasligi va yana bir qator kamchiliklarga ega ekanligidir[10]<sup>1</sup>, ya'ni:

- ushbu soha bo'yicha malakali mutaxassislar yetishmaydi;
  - sug'urta xizmatlari bozori borasida shahar markazi va chekka hududlar o'rtasidagi tafovutning mavjudligi;
  - ko'pchilik odamlarning ishonchsizligi;
  - sug'urta xizmatlarini amalga oshirish jarayonida qog'ozbozlik va ovvoragarchilikning ko'pligi va boshqalar.
- Bugungi kunda O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan qator vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish jarayonida iqtisodiy faoliyatning o'zaro uyg'un dastaklari majmui bo'lmish bozor institutlarini, jumladan, bank va sug'urta sohalarini rivojlantirish va takomillashtirish muhim omillardan biri hisoblanadi.

Sug'urta xizmatlari bozori rivojlanishida sug'urta bozori ishtirokchilari faoliyat yuritishi uchun keng imkoniyatlar yaratilishi, qator qonun hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashda

<sup>1</sup> Manba: <https://review.uz/uz/post/ijtimoiy-sugurta-modellari-jahon-tajribasi-va-ozbekiston-amaliyoti>



muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada shakllantirish, sug'urta faoliyatining zamonaviy turlarini rivojlantirish va sifatini oshirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuv darajasini ko'paytirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning mintaqaviy tarmoqlarini kengaytirish, shuningdek, sug'urtalashni tartibga solish usullarini takomillashtirish maqsadida

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan sug'urta tashkilotlari bilan birgalikda "O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish dasturi"[1]<sup>2</sup> ishlab chiqildi. Ushbu dastur rejasida:

- sug'urtalash, sug'urta faoliyatini va uning qonunchilik bazasini xalqaro amaliyotga muvofiq tarzda yanada takomillashtirish;
- sug'urtaning jamg'arma turlari sohasida sug'urta xizmatlari hajmini, ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish;
- respublika sug'urta bozorini xalqaro sug'urta bozorlariga integratsiyalash;
- sug'urta xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;
- sug'urta bozori konyukturasini o'rganish, uning shaffoqligini ta'minlash va raqobatni kuchaytirish;
- sug'urta sohasiga investitsiyalarni jalb qilishda ko'maklashish;
- aholi o'rtasida sug'urtalash masalalari bo'yicha tushuntirish ishlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Olib borilgan izchil islohotlar natijasi o'laroq, sug'urta kompaniyalarining faoliyat darajasini tobora kengayib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Hozirda mazkur bozorda yangi sug'urta ishtirokchilarining yuzaga kelayotgan mavjud sug'urta turlarini yanada ko'paytirish hamda shu orqali keng toifadagi yuridik va jismoniy shaxslarni sifatli sug'urta xizmatlari bilan ta'minlash imkonini bermoqda. Mamlakatimiz Prezidentining 2007-yil 10 apreldagi PQ-

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni.-Toshkent, 2002-yil 5-aprel

618 sonli "Sug'urta bozorini isloh qilish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"[2]<sup>3</sup>gi Qarori muhim omil bo'ldi. Ushbu qarorlar bugungi kunda mamlakatimizda sug'urta xizmatlari bozorini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, jismoniy va yuridik shaxslarning sug'urta bozorida faol ishtirok etishini rag'batlantirish maqsadida sug'urta kompaniyalari uchun har tomonlama shart-sharoitlar yaratilmoqda. Sug'urta tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish sug'urta bozorida turli mulkchilik shaklidagi tashkilotlarning paydo bo'lishiga xizmat qilmoqda. Bu borada qabul qilingan huquqiy hujjatlar sug'urta tizimini jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish, jahon andozalariga mos, sifatli xizmat ko'rsatish hamda sug'urta bozori infratuzilmasini takomillashtirish imkonini beradi.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10 apreldagi "Sug'urta bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-618 sonli Qarori.



Muhtaram yurtboshimiz shu soha bo'yicha 2019-yilda o'tkazilgan yig'ilishlarida "Bu sohaga nazoratchi emas, ilg'or va zamonaviy standartlarni joriy etadigan, barcha ishtirokchilar o'rtasida chinakam raqobat muhitini yaratib, sug'urta bozorini rivojlantiradigan tuzilma kerak" [9]<sup>4</sup> deya ta'kidladilar. Jumladan, mutasaddilarga sug'urta sohasini o'rta va uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish va 2022-yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofoti hajmini 3 baravar, sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini esa 2 baravar oshirish vazifasini qo'ygan edi. Quyidagi jadvalda Ozbekiston sug'urta bozorining 2020-2021 yillar Umumiy sug'urta tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlarni ko'rishimiz mumkin.

---

<sup>4</sup> Manba: <https://www.uzbekinvest.uz>



(1-rasm.)

№	Sug'urta kompaniyalari nomi	Sug'urta mukofotlari			Sug'urta to'lovlari			Sug'urta majburiyatlari		
		31.12.2020	31.12.2021	O'zgarish, %	31.12.2020	31.12.2021	O'zgarish, %	31.12.2020	31.12.2021	O'zgarish, %
	<b>Umumiy</b>	<b>1 879 346</b>	<b>2 996 541</b>	<b>+59,4%</b>	<b>419 628</b>	<b>609 953</b>	<b>+45,4%</b>	<b>1 088 180 764</b>	<b>1 228 107 598</b>	<b>+12,9%</b>
1	"O'zbekinvest" EISK AJ	262 869	385 385	+46,6%	66 601	89 325	+34,1%	142 622 569	151 506 486	+6,2%
2	"Gross Insurance" MChJ	251 773	343 817	+36,6%	48 966	56 209	+14,8%	263 716 640	191 500 270	-27,4%
3	"O'zagrosug'urta" AJ	178 203	260 975	+46,4%	91 392	35 349	-61,3%	83 268 490	90 722 580	+9,0%
4	"Apex Insurance" MChJ	120 337	229 112	+90,4%	4 786	35 131	+634,1%	50 025 571	78 115 069	+56,2%
5	"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	149 363	223 750	+49,8%	36 770	33 629	-8,5%	101 898 213	134 428 365	+31,9%
6	"My Insurance" MChJ	101 310	185 284	+82,9%	14 477	96 200	+564,5%	14 811 784	35 795 532	+141,7%
7	"Alfa Invest" MChJ	97 295	156 314	+60,7%	16 096	21 289	+32,3%	104 392 522	61 497 457	-41,1%
8	"Euroasia Insurance" QK MChJ	144 932	154 390	+6,5%	30 158	36 080	+19,6%	69 391 945	93 976 415	+35,4%
9	"Temiryo'l-sug'urta" MChJ	52 788	135 316	+156,3%	11 691	13 162	+12,6%	20 531 996	45 587 193	+122,0%
10	"Kapital sug'urta" AJ	49 432	116 805	+136,3%	11 650	37 596	+222,7%	38 135 871	53 442 027	+40,1%
11	"Kafil sug'urta" MChJ	50 006	100 201	+100,4%	1 874	27 185	>+1000%	12 942 068	24 948 527	+92,8%
12	"Imkon sug'urta" MChJ	29 749	77 524	+160,6%	287	7 828	>+1000%	9 361 765	11 371 317	+21,5%
13	"PSB Insurance" MChJ	48 031	72 402	+50,7%	4 869	17 346	+256,3%	23 558 056	34 339 431	+45,8%
14	"Asko-Vostok" MChJ	35 099	61 103	+74,1%	15 007	16 533	+10,2%	7 823 191	10 708 438	+36,9%
15	"Asia Inshurans" MChJ	51 436	55 720	+8,3%	19 436	17 627	-9,3%	20 974 014	30 380 377	+44,8%
16	"Alskom" AJ	44 109	52 573	+19,2%	14 370	11 305	-21,3%	34 612 303	31 600 511	-8,7%
17	"Ingo-Uzbekiston" AJ	37 545	40 651	+8,3%	7 721	9 586	+24,2%	21 432 359	26 163 294	+22,1%
18	"Xalq sug'urta" MChJ	29 066	39 991	+37,6%	8 843	3 790	-57,1%	12 343 071	15 633 783	+26,7%
19	"Inson" MChJ	17 128	36 572	+113,5%	1 712	2 956	+72,7%	5 403 726	21 197 449	+292,3%
20	"Hamkor sug'urta" MChJ	25 110	35 218	+40,3%	1 655	3 694	+123,3%	6 353 694	11 779 076	+85,4%
21	"Ishonch BSK" MChJ	16 536	32 702	+97,8%	3 587	8 395	+134,1%	5 538 531	7 336 597	+32,5%
22	"Global Insurance Group" MChJ	12 652	30 587	+141,8%	1 081	7 223	+568,1%	1 585 680	2 664 673	+68,0%
23	"Semurg Insurance" QK MChJ	243	24 780	>+1000%	-	3 632	0%	6 172	5 490 424	>+1000%
24	"Universal sug'urta" AJ	25 566	21 552	-15,7%	4 098	3 838	-6,3%	13 381 753	10 113 205	-24,4%
25	"Perfect Insurance" MChJ	9 120	21 275	+133,3%	32	2 885	>+1000%	2 612 478	6 285 624	+140,6%
26	"DD General Insurance" MChJ	9 961	20 643	+107,2%	1 391	3 028	+117,7%	3 249 024	4 590 918	+41,3%
27	"Sharq-sug'urta" MChJ	-	18 672	0%	-	5 960	0%	-	9 715 745	0%
28	"Trust-Insurance" MChJ	-	16 571	0%	-	45	0%	-	4 571 307	0%
29	"Aria Sug'urta Tashkiloti" MChJ	842	13 081	>+1000%	-	211	0%	1 347 761	4 766 239	+253,6%
30	"Omad sug'urta" MChJ	14 284	12 282	-14,0%	46	802	>+1000%	3 751 453	5 164 438	+37,7%
31	"Garant Insurance Group" MChJ	11 795	11 515	-2,4%	835	1 574	+88,4%	3 241 351	2 529 735	-22,0%
32	"Impex Insurance" MChJ	-	5 124	0%	-	-	0%	-	1 306 260	0%
33	"Unipolis" MChJ	2 765	3 184	+15,2%	197	297	+50,6%	9 866 710	8 746 669	-11,4%
34	"Azimuth Insurance Company" XK MChJ	-	1 468	0%	-	244	0%	-	132 168	0%

**1-rasm. O'zbekiston Respublikasida umumiy tarmoq bo'yicha faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalarining xizmat ko'rsatish hajmi (mln.so'mda)[7]<sup>5</sup>**

<sup>5</sup> Elektron resurslar orqali muallif tomonidan tuzildi Manba: [www.dav.stat.com](http://www.dav.stat.com)



Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, 31-dekabr 2021-yil holatiga ko'ra Respublika bo'yicha jami sug'urta summasi 2 996 541 mln. so'mni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2020 yil yakunida 1 879 346 mln. so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar taqqoslangada bir yil davomida Respublika miqyosida sug'urta mukofotlari 59,4%ga ortgan. Davlatimiz miqyosida 2021-yil yakuni bo'yicha sug'urta to'lovlari hajmi 609 953 mln. so'mni tashkil etib, 2020-yil yakuni bo'yicha qayd etilgan 419 628mln. so'mdan 45,4 %ga ko'pdir. Shu bilan bir qatorda 2020-yilda sug'urta majburiyatlari hajmi 1 088 180 764 mln so'mni tashkil etgan, bu ko'rsatkich 2021 yil yakunida 1 228 107 598 mln. so'mga yetdi, bu o'z navbatida Xulosa qilib aytish mumkinki, sug'urta xizmatlarini rivojlantirish bozori sohasida bunday islohotlarni olib borish mamlakatimizda elektron savdo va elektron xizmatlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shib, aholining keng qatlami uchun turli byurokratik to'siqlarni kamaytiradi,

2020 yilga nisbatan 12,9% oshganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida bo'lganidek sug'urta sohasida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish va raqamli texnologiyalarni joriy etish aholi uchun ko'plab qulayliklar yaratadi hamda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi. Sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratishi lozim. Bu boradagi ishlar internet tarmog'i orqali sug'urta xizmatlarini ko'rsatish, sotish bozorini kengaytirish, xizmatlar sifatini oshirish masalalari ko'zda tutiladi.

masofa va vaqtni qisqartirish imkonini beradi. Shuni aytish joizki, joriy etilgan ushbu islohotlar mijozlarga qulaylik yaratish bilan bir qatorda xizmatlarning geografik jihatdan qamrovini kengaytirish bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.- Toshkent,2002-yil 5aprel
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10 apreldagi "Sug'urta bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-618 sonli Qarori.
3. Shennayev X.M Sug'urta ishi:O'quv qo'llanma T.: Iqtisod-Moliya 2014
4. Shennayev X.M.O'zbekiston sug'urta bozori: O'quv qo'llanma T.:Iqtisod-Moliya 2013
5. Mahmudova L.Sug'urta ishi-O'quv qo'llanma
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
7. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
8. [www.sug'urta.uz](http://www.sug'urta.uz)
9. [www.uzbekinvest.uz](http://www.uzbekinvest.uz)
10. [www.review.uz](http://www.review.uz)